

ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA MADANIYATLARARO MUNOSABATLAR UYG'UNLIGI VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MAQOLALAR TO'PLAMI

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



BUXORO
2025-YIL 27-MAY

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA
MADANIYATLARARO
MUNOSABATLAR UYG'UNLIGI
VA TARAQQIYOT
TENDENSIYALARI”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MAQOLALAR TO'Plami

2025-yil 27-may

BUXORO – 2025

TASHKILIY QO'MITA

- Sh.N. Murodov** – BDPI ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, rais.
- G.R. Akramova** – Ilmiy-tadqiqotlar, ilmiy innovatsiyalar va pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, pedagogika fanlari doktori, professor, rais o'rinbosari.
- N.Dj.Yadgarov** – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, a'zo.
- G.T. Boymurodova** – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, a'zo.
- B.Q. Xodjayev** – Pedagogika kafedrası dotsenti, Pedagogika fanlari nomzodi, a'zo.
- B.J. Umarov** – Pedagogika kafedrası professori, Pedagogika fanlari nomzodi, a'zo.
- Z.B. Jalilov** – Pedagogika kafedrası dotsenti, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, p.f.f.d (PhD), a'zo.
- Q.F. Abdullayev** – Umumiy pedagogika kafedrası dotsenti, a'zo.
- J.T. Karimov** – Umumiy pedagogika kafedrası o'qituvchisi, a'zo

Manzil:

Buxoro davlat pedagogika instituti – Piridastgir ko'chasi, 2-uy.

Ish tili: o'zbek, rus, ingliz

Anjumaning boshlanishi – 22-may 2025-yil, soat 10⁰⁰, BuxDPI majlislar zali.

Reglament:

Yalpi majlisdagi ma'ruzalar uchun - 20 daqiqa

Seksiya yig'ilishlaridagi chiqishlar uchun - 10 daqiqa

Munozara uchun - 5 daqiqa.

Bog'lanish uchun ma'lumot: Tel.: +998 99 484 00 76

+998 99 757 14 41

DASTURIY QO'MITA

1. B.B.Ma'murov – Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor, rais;
2. Sh.N.Murodov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fizika-matematika bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, rais o'rinbosari;
3. M.M.Bafayev – O'quv ishlari bo'yicha prorektor, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
4. G.R.Akramova - Ilmiy-tadqiqotlar, ilmiy innovatsiyalar va pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, Pedagogika fanlari doktori (DSc), a'zo;
5. N.Dj.Yadgarov – Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, a'zo;
6. G.T.Boymurodova – Umumiy pedagogika kafedrası mudiri, Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, a'zo;
7. B.Q.Xodjayev – Umumiy pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi, a'zo;
8. B.J.Umarov – Umumiy pedagogika kafedrası professori, pedagogika fanlari nomzodi, a'zo;
9. Z.B.Jalilov – Umumiy pedagogika kafedrası dotsenti, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori p.f.f.d (PhD), a'zo;
10. Q.F.Abdullayev – Umumiy pedagogika kafedrası dotsenti, a'zo.

BOLALAR ADABIYOTIDA SADRIDDIN AYNINING “AHMADI DEVBAND” ASARINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY METODIK YONDASHUVLAR

Saparovna Shahlo Ramazonovna
Buxoro davlat universiteti

Pedagogika kafedrası tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sadriddin Ayniyniing “Ahmadi Devband” qissasining bolalar adabiyotidagi o‘rni, ma’naviy-tarbiyaviy ahamiyati hamda jasorat, aql-zakovat kabi fazilatlarni targ‘ib etishdagi roli tahlil etiladi. Asarning zamonaviy dars metodikasi – “Task-based” yondashuvi asosida o‘qitilishi bolalarning adabiy va tafakkur salohiyatini oshirishda muhim vosita sifatida ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: Sadriddin Ayniy, bolalar adabiyoti, Ahmadi Devband, jasorat, jin obrazlari, task-based metodi, tarbiya, voqeviylik.

Bolalar adabiyotini o‘qitishni jadid ma’rifatparvarlarning asarlarisiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, Sadriddin Ayniyniing asarlari ham o‘qish darsligi sifatida boshlang‘ich maktablarda o‘qitilib, ham bolalar adabiyoti rivojiga munosib hissa qo‘shgan. Sadriddin Ayniyniing “Eski maktab” va “Surxo‘rning o‘limi” asarlari dunyo bo‘ylab turli tillardagi tarjimalari keng tarqalgan bo‘lib, bu asarlarni o‘qish va o‘qitish bugungi kunda ommalashib bormoqda. Sadriddin Ayniy barcha asarlarini boshidan kechirgan voqealar asosida yozgan. Ustod Ayniy zullisonayn ijodkor bo‘lib, uning ba’zi asarlarini tojik tilida topish mumkin. Shu asarlaridan biri “Ahmadi Devband” [1] qissasidir.

Sadriddin Ayniy asarning so‘zboshida qissani 1928-yilda yozganini va “Rahbari Donish” jumalining 8-9(11-12) va 11-12(14-15) sonlarida chop ettirganini yozgan. Shuningdek, bu asarni ustida ishlab, kamchiliklarini tuzatib, bolalar va yangi savodxon bo‘lgan kattalar kutubxonasiga 1936-yilda taqdim etgan.

S. Ayniyniing “Ahmadi Devband” asarida bosh qahramon Ahmad bo‘ladi. Asarda aytilishicha, Ahmad xuddi Sadriddindek jasur va qo‘rqmas bo‘ladi. Hikoyada hamma jinlar haqida turli hikoyalar aytib, bir-biriga qo‘rquv solib yurganida Ahmad turli ishlarni bajarib jasurlik ko‘rsatadi. Shulardan biri, yarim kechada Ahmad qo‘rqmasdan qabristonga borib xanjarni qo‘yib kelishi edi. Boshqasi esa Badalbek madrasasi atrofida cho‘g‘ni bir kishi ko‘rib qolganida jin deb o‘ylab hushidan ketganida, Ahmad borib uni oyog‘i bilan bosib o‘chiradi. Aslida bu narsa suyak tarkibidagi fofor bo‘lib vaqt o‘tgach u o‘zidan yorug‘lik chiqaradi.

Ahmadning jasurligiga uning otasi aytib bergan voqea sabab bo‘ladi. Ahmad bolaligida ko‘ziga turli jinlar ko‘ringach, bolasining qo‘rqoq bo‘lib o‘z ishini oldini olish uchun otasi unga bir hikoya aytib beradi:

“Ahmadning bobosi tog‘ga chiqib, jinlarning Shohini uzun soqoldan tutib, uning avlodlariga barcha jinlar zarar yetkazmasa, shunda uni qo‘yib yuborishini aytadi va va’dasini yetkaza olmaydi.”

Ma’lum vaqt o‘tgach Ahmadning otasi bu hikoyani to‘qib chiqarganligini aytadi. Asarda jinlar va ajdahoilar haqidagi turli mavzular hikoyalaniib, mazmunining qiziqarliligi bilan bolalarni o‘ziga jalb qiladi. Yosh ktiobxon asarni o‘qiyotganida voqealari ichiga sho‘ng‘ib ketadi, bosh qahramon o‘rniga o‘zini tasavvur qilib, asarni o‘qib tugatgach dunyoqarashi yuksaladi. “Ahmadi Devband” asarini yoshu-katta birdek sevib o‘qiydi. Sadriddin Ayniyniing yuksak mahoratligi shundaki, uning asarlarini kattalar ham, bolalar ham qiziqib, tushunib o‘qiydi va kishini mulohaza qilishga undaydi. Quyida berilgan “Task-based” metodi [9] orqali talabalarga bolalar adabiyotini o‘qitishda ushbu asarni mustahkamlash mumkin.

Vazifalarga asoslangan usul (Task-Based Method) metod [9]

Vazifaga asoslangan o‘qitish usuli ko‘plab zamonaviy o‘qitish usullaridan biri bo‘lib, talabalar uchun maqsadni belgilashga qaratilgan - bu hisobot, video yoki taqdimot bo‘lishi mumkin. Bu maqsadga erishish uchun uchta asosiy qadarni bajarish kerak.

1. Oldindan topshiriq; 2. Vazifa; 3. Ko'rib chiqish. Oldindan topshiriq - kerak bo'lsa butun bir darsni egallashi mumkin bo'lgan bu bosqich davomida o'qituvchi topshiriqni talabalarga tanishtiradi va ularni hal qilishga undab oladi. Har bir kishi shug'ullangandan so'ng, o'qituvchi vazifa uchun kutilgan narsani tushuntirishi kerak. Og'zaki Professional ta'limga qo'llaniladigan zamonaviy metodlar Professional ta'limga zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodlar tushuntirishlar o'qituvchidan namuna yoki oldingi talabani ishini ko'rsatish orqali qo'llab quvvatlanishi mumkin. O'qituvchi kerak bo'lsa keyingi ko'rsatmalarni berishi va vazifaga qanday yondashish haqida maslahat berishi mumkin. Vazifa - bu topshiriqqa asoslangan ta'limning asosiy bosqichi bo'lib, bu yerda talabalar odatda guruh yoki juft bo'lib ishlay boshlaydilar. O'qituvchi odatda ish jarayoniga qo'shilmaydi. Buning o'rniga, talabalarni kuzatib boradi va agar talabalarga haqiqatan ham yordam kerak bo'lsa, maslahatlar beradi. Ko'rib chiqish - talabalar topshiriqni bajarib, biror narsani taqdim qilgandan so'ng, tekshirish bosqichi boshlanadi. Talabalarga bir-birining ishini baholashga ruxsat beriladi. Tekshirish bosqichi talabalarga o'z ishlari haqida fikr yuritish va kelajakda o'z mahoratini oshirish uchun tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Amalga oshirish mexanizimi va vazifalari

1. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarga mavzu vazifa beradi, lekin to'liq tushuntimaydi.
2. O'quvchilar bir necha guruhlariga bo'linadilar.
3. Guruhlar to'plangan ma'lumotlarni bir-birlari bilan almashadilar va o'zlariniki bilan solishtiradilar.
4. Har bir guruh boshqa guruhning ma'lumotlarida yo'l qo'yilgan kamchiliklar to'g'risida butun sinfga hisobot berish uchun tayyorgarlik ko'rishadi.
5. Hisobotlar barchaga eshittiriladi, kamchiliklar bo'yicha o'qituvchi qo'shimchalar kiritadi

Nomlar	Ma'lumotlar
Niyozg'oppon	... <i>(yoshi katta chol)</i>
Xaybar	... <i>(Ahmadning iti, qabrisoniga ini birga olib boradi)</i>
Badalbek	... <i>(Buxoro shahridagi madrasa, u yerda oldin qabrison bo'lgan)</i>
Ahmadi Devband	... <i>(asarda 16-17 yoshlik yigit, qabrisonga borib jinlardan qo'rqmagani uchun "Devband" laqabini olgan)</i>
Sa'diy	... <i>(Ahmad yoshligida Sa'diyning g'azalini o'qib, ma'nosini otasidan so'raydi)</i>
Nurota	... <i>(Ahmadning otasining hikoyasiga ko'ra, uning bobosi Nurotada jinlarning shohini tutib, avlodlariga zarar yetkazmaslik va dasini oladi)</i>

Sadriddin Ayniyning "Ahmadi Devband" qissasi nafaqat bolalar adabiyoti tarqiyotiga, balki yosh avlodga jasorat, fikrlash va hayotiy saboqlarni singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu asar orqali muallif bolalarga xayoliy obrazlar orqali real hayot haqiqatlarini anglashga yordam beradi, ularni qo'rquvdan xalos bo'lishga va jasorati bo'lishga chorlaydi. Ayniyning asarlaridagi real voqealarga asoslangan mazmun, soddaligi va mazmundorligi ularni har ikki til sohiblari – o'zbek va tojik o'quvchilari uchun ham tushunarli va jozibali qiladi. Shuningdek, "Ahmadi Devband" qissasini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuv — "Task-based" metodidan foydalanish talabalarda nafaqat adabiy bilimni, balki tahliliy fikrlash, ijodiy yondashuv va estetik didni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham Sadriddin Ayniy merosi bolalar adabiyotida alohida o'rin tutadi va uni o'rganish, o'qitish dolzarbdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sadriddin Ayniy "Ahmadi Devband" qissasi "Muntaxabot" Dushanbe "Adib" 2019. 346-376b.

2. Saparova Shahlo Ramazonovna. Elbekning Asarlaridan Foydalanib Bolalar Adabiyotini O'qitish Metodikasini Takomillashtirish. Miasto przyszlosci. Vol. 46(2024) 221-226-b. <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2834/2603>
3. Saparova Sh.R. "The classification of Elbek poems in 5 directions" mahorat@umail.uz 2021-yil, dekabr. 175-bet.
4. Saparova Shahlo Ramazonovna "Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun Elbekning yaratgan darsliklari" "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 2023-yil aprel. 68-77-betlar. <https://interscience.uz/index.php/home/issue/view/52>
5. Saparova Shahlo Ramazonovna "Jadidchi Elbekning bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirishdagi hissasi" Journal of universal science research. 15.12.2023. ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-12. 246-256-betlar. <https://universalpublishings.com/index.php/just/article/view/3289>
6. Saparova Shahlo Ramazonovna. Improving the Methodology of Teaching Children's Literature Using Elbek's Textbook "Go'zal yozg'ichlar" AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education Volume 01, Issue 10, 2023ISSN (E): 2993-2769. P-564-572

View of Improving the Methodology of Teaching Children's Literature Using Elbek's Textbook "Go'zal yozg'ichlar" (ermjournal.us)

7. Saparova Shahlo Ramazonovna "Implementation Of Elbek's works in teaching children's literature" <https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje/article/view/504/584>

8. Saparova Shahlo Ramazonovna "Elbek va Sadridin Ayniy asarlaridan foydalanib bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirishning pedagogik xususiyatlari" "Ta'limda istiqbolli izlanishlar" 10.08.2024.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA "TARBIYA" DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Suleymanova Mansura Polatovna

*o'qituvchi va boshlang'ich ta'lim
kafedrasida assistent o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda tarbiya darslarini tashkil etish jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanishning ahamiyati yoritiladi. O'quvchilarning erkin fikrlashini rivojlantirish, tarbiyaviy maqsadga erishish va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali dars samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar : O'zbek tilida: boshlang'ich ta'lim, tarbiya darsi, innovatsion texnologiyalar, o'qitish metodikasi, ijodiy fikrlash, pedagogik yondashuv.

Jahon hamjamiyatida integratsiyalashuv jarayoni kechayotgan bugungi kunda taraqqiyotning asosiy omillari sifatida jamiyat a'zolarining kreativ faollik darajasi e'tirof etilib, xalqaro hamda dunyoning aksariyat mamlakatlari tomonidan 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "bilimning mustahkam poydevoriga ega bo'lish va kreativ sifatida qayd etilgan. Turli sohalarida yo'lga qo'yilayotgan Xalqaro hamkorlik garchi o'z samarasini berayotgan bo'lsa-da biroq, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a'zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat'iyat ko'rsatishni talab etmoqda. Dunyo amaliyotida har qanday o'zgarishlarga ijodiy yondosha oladigan, mavjud muammolarni noan'anaviy va samarali hal qila oladigan insonlarni tarbiyalash, shuningdek, jamiyatning o'sib borayotgan ehtiyojlari, jadal rivojlanish sur'ati va natijada mutaxassislarni tez o'zgaruvchan sharoitlarda hayotga tayyorlash zaruriyati bilan bog'liq bo'lgan dolzarb masalalar yechimiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish jarayonida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar uzluksiz ta'lim

6-SINF RUS TILI DARSIDA "FE'LNING HOZIRGI ZAMON SHAKLI " MAVZUSINI TA'LIM JARAYONI DAVRIGA MOS DARS O'TISH TEXNOLOGIYASI	360
<i>M.Q.Ro'ziyev</i>	
<i>N.Q.Qahorova</i>	
BIOKIMYOVIY JARAYONLAR VA MOLEKULYAR BIOLOGIYA: STEAM TEXNOLOGIYASI, FLIPPED LEARNING METODLARI ORQALI O'RGANISH	362
<i>Elibayeva Feruza Xamzayevna,</i>	
3-SINF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIGIDA BERILGAN LUG'ATLARNING O'QUVCHI NUTQ FAOLIYATIDAGI O'RNI	365
<i>Ergasheva Tuyg'unoy Shavkatjon qizi,</i>	
O'ZBEK TILI KOPUS LINGVISTIKASINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI	367
<i>Usmonova Mohinur Ulug'bek qizi</i>	
<i>Rajabova Marjona Rahmatillo qizi</i>	
LIRIK ASARLARDA DIDAKTIK MAZMUNNING IFODASI	370
<i>Karimova Munavvar Nodir qizi</i>	
UMUMIY GRAMMATIK MA'NONI IFODALASH YO'LLARI	372
<i>Jo'rayeva Mohigul Baxtiyor qizi -</i>	
DIDAKTIK JARAYON MAZMUNINI BOYITISHDA DIDAKTIK O'YINLAR VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI AFZALLIKLARI	374
<i>Raximova Ruxsora Haydar qizi</i>	
TEXNOLOGIYA' FANINI O'QITISHDA RAQAMLI VOSITALAR ORQALI O'QUVCHILARNING KOGNITIV SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH	376
<i>Raxmatova Nazokat Ibrohimovna,</i>	
LOGISTIKANING PEDAGOGIKA FAN TARMOQLARI BILAN ALOQADORLIGI	379
<i>Allayorova Sarvinoz Baxtiyorovna</i>	
PISA DASTURINING UZLUKSIZ TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI	381
<i>Saidova Yulduz Zamon qizi</i>	
BOLALAR ADABIYOTIDA SADRIDDIN AYNINING "AHMADI DEVBAND" ASARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODIK YONDASHUVLAR	383
<i>Saparova Shahlo Ramazonovna</i>	
BOSHLANG'ICH TA'LIMDA "TARBIYA" DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	385
<i>Suleymanova Mansura Polatovna</i>	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH	388
<i>Teshayeva Sarvinoz Jamshidovna</i>	
BOSHLANG'ICH SINFDAGI PEDAGOGIK JARAYONNI TASHKIL ETISHDA STEAM TEXNOLOGIYASINI QO'LLASH ORQALI O'QUVCHILARNI TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISH METODIKASI	390
<i>Salixova Lobar Farxodovna</i>	
<i>Ilmiy rahbar: p.f.n., dots. M.M.Tilavova</i>	
GERMENEVTIK METODNING QO'LLANILISHI	391
<i>Sidiqova Dilor Shavkatovna</i>	
"TO'Y" KONSEPTI IFODALOVCHI BIRLIKLARNI O'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI	393
<i>Qochqorova Zulfizar</i>	
<i>Yo'ldosheva Gulyora</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING DARS JARAYONIDA OG'ZAKI VA YOZMA NUTQ KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI	394
<i>Xudaybergenova Nawrizbiyke Qanat qizi</i>	